

UMUMTA'LIM MAKTABLARI 9-11-SINFLARI UCHUN “KELAJAK SOATI” DARS SSENARIYSI

13-Mavzu: “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz! Biz bag‘rikeng va madaniyatli jamiyat tarafdorimiz!”

Dars sanasi: 2025-yil 24-noyabr

Annotatsiya

Ushbu dars maktab o‘quvchilarida bulling (jismoniy, ruhiy va kiber zo‘ravonlik) tushunchasi haqida bilimlarni shakllantirish, uning oqibatlari va oldini olish yo‘llari haqida bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishga qaratilgan. Shu bilan birga, bag‘rikenglik, madaniyatli muomala va inson huquqlariga hurmat kabi ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish maqsad qilinadi. Dars interaktiv usullar asosida tashkil etilib, o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi va shaxsiy mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Dars maqsadlari

Umumiy maqsad:

O‘quvchilarda zo‘ravonlikka qarshi ongli munosabatni shakllantirish, bag‘rikenglik, madaniyatli muomala va insonparvar munosabatlar orqali jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishga hissa qo‘sha oladigan faol, mas’uliyatli fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda **zo‘ravonlikka qarshi** dunyoqarashni shakllantirish, uning turlari (jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, kiber) va salbiy oqibatlari haqida bilim berish;
2. Jamiyatda bag‘rikenglik, madaniyatli muomala va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarni shakllantirish hamda ularni hayotda qo‘llashga undash;
3. Bulling holatlarini anglash, baholash va ularga qarshi to‘g‘ri munosabat bildirish, zarur holatda yordam so‘rash va ko‘mak berish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
4. Faol fuqarolik pozitsiyasi va javobgarlik hissini shakllantirish – o‘quvchilarni o‘z huquqlari va boshqalar huquqlarini hurmat qilishga o‘rgatish;
5. Maktabda sog‘lom psixologik muhit yaratishga hissa qo‘shish, o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlashga asoslangan guruh munosabatlarini rivojlantirish.
6. Ijtimoiy himoya milliy agentligining bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish dasturi haqida ma’lumot berish.
7. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish .

Asosiy g‘oyalar

- Bulling – jamiyat uchun xavfli illat
- Har bir inson hurmat va qadr-qimmatga loyiq
- Bag‘rikenglik – tinch va barqaror jamiyat asosi
- Zo‘ravonlikka qarshi kurash – har bir fuqaroning mas‘uliyati
- Ijtimoiy yordam - Ijtimoiy himoya milliy agentligining tarmoq dasturi

Darsdan kutilayotgan natijalar

1. Aqliy darajada (bilim va fikriy faollik):

- O‘quvchi “zo‘ravonlik” tushunchasini va uning turlarini (jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, kiber) tushunadi;
- Zo‘ravonlikning oqibatlarini tanqidiy tahlil qiladi;
- Bag‘rikenglik, madaniyatli munosabat va inson huquqlari haqida asosiy bilimlarni egallaydi;
- Turli vaziyatlarda bulling va hazilni farqlay oladi;
- Yordam so‘rash va ko‘mak berishning to‘g‘ri yo‘llarini anglaydi.

2. Hissiy darajada:

- Zo‘ravonlikka duch kelgan insonlarning holatiga hamdardlik hissi paydo bo‘ladi;
- Odamlarni tahqirlash, masxara qilish, yakkalashtirish emotsional zarar yetkazishini chuqur his etadi;
- O‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini anglay olish qobiliyati rivojlanadi (emotsional intellekt);
- Zo‘ravonlik holatlarida adolat, insonparvarlik va himoya qilish istagi paydo bo‘ladi;
- Madaniyatli muomala, bag‘rikenglik va hurmatga asoslangan munosabatlarga nisbatan ijobiy hissiy munosabat shakllanadi;
- O‘zining xatti-harakatlarini qayta baholab, ijobiy o‘zgarish qilishga hissiy tayyorlik hosil qiliadi;

3. Amaliy ko‘nikmalarda:

- Zo‘ravonlik holatlarida o‘zini to‘g‘ri tuta oladi;
- O‘zini yoki do‘stini himoya qilish uchun to‘g‘ri qaror qabul qiladi;
- Maktabda va jamoada bag‘rikeng, do‘stona muhit yaratishga amaliy hissa qo‘shadi;
- O‘z huquqlarini bilib, ularni himoya qilishni o‘rganadi;
- Zo‘ravonlikka qarshi tashabbuslarda faol ishtirok etish qobiliyatini namoyon qiladi.

4. Ijtimoiy jihatdan:

- O‘zining va boshqalarning shaxsiy qadrini hurmat qilish hissini shakllantiradi;
- Zo‘ravonlikni qat’iy rad etish va fuqarolik mas‘uliyatini anglaydi;

- Hamdardlik, adolat, bag‘rikenglik, insoniylik kabi fazilatlarni hayotga tatbiq etadi;
- Boshqalarga yordam berish, jamoada hurmatli munosabatda bo‘lishga intiladi.

Dars hamkori: O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi.

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Tavsiya etilgan shakl: interaktiv (suhbat, guruhda muhokama, kartochkalar, videorolik namoyishi).

Materiallar to‘plami: ssenariy matni, ijtimoiy videorolik, vaziyat kartochkalari, flomaster, marker, varaqlar.

Darsning ssenariysi

1. Kirish. Motivatsion qism (5 daqiqa)

O'qituvchi:

Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar!

Bugun biz juda dolzarb mavzu – zo'ravonlik va bulling haqida gaplashamiz. Sizning orangizda bu so'zlarni eshitmaganlar kam bo'lsa kerak. Lekin har birimiz hayotimizda shunday holatlarga duch kelgan bo'lishimiz mumkin. Kimdir masxara qiladi, kimdir haqorat qiladi, kimdir internetda sizni yomonlaydi... Bu shunchaki hazil emas. Ruhiy zo'ravonlik va bullingni jiddiy qabul qilmaslik jamiyat uchun katta xatardir.

Bugungi darsimizda biz:

- Bulling nimaligini,
- U qanday namoyon bo'lishini,
- Unga qarshi qanday kurashishni muhokama qilamiz.

Bolalar, bilasizlarmi, mamlakatimizda har bir bolaning huquqlari, xavfsizligi va himoyasi qonun bilan kafolatlangan. Shu yili bolalar huquqlarini yanada kuchli himoya qiluvchi yangi qonun ham kuchga kirdi. Keling, shu qonun haqida Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Shahnoza Mirziyoyevadan eshitamiz.

Vizul kontent

Shahnoza Mirziyoyeva Bolalarni himoya qiluvchi yangi qonun haqida gapirdi

<https://youtu.be/qax2hGRAQgc?si=qStR211S8l481nbm>

Videorolik muhokama qilinadi (2 daqiqa)

ASOSIY QISM. (30 daqiqa)

Didaktik o'yin texnikasi. O'qituvchi har bir ishtirokchiga vertikal ravishda "Bulling" so'zi tushirilgan blankalarni tarqatadi.

O'qituvchi:

Bulling – bu bir shaxs yoki guruhning boshqasiga nisbatan takroriy ravishda haqorat, tahqir yoki jismoniy zo'ravonlik orqali bosim o'tkazishi. U og'zaki, jismoniy yoki Internet orqali (kiberbulling) bo'lishi mumkin.

"Bulling" tushunchasini anglaymiz. Qo'lingizda **"Bulling"** so'zi yozilgan varaqlar bor. Sizning vazifangiz – har bir harf uchun ushbu tushuncha bilan bog'liq iloji boricha ko'proq **assotsiatsiya** yozib chiqishdir.

B – Bosim, Befarqlik, Buzg'unchilik, Bezovtalik

U – Uyaltirish, ustidan kulish, umidsizlik, urushqoqlik

L – Laqab qo'yish

L – Loqaydlik
I – Intizomsizlik, Ishonchsizlik
N – Norozilik, Nazoratsizlik, Nafrat
G – Gap-so‘z, gina, g‘iybat

Savollar:

1. “Bulling”so‘zi qanday ma’no kasb etar ekan?
– Bulling – bu bir inson yoki guruhning boshqasiga ruhiy, jismoniy yoki ijtimoiy bosim o‘tkazishi yoki tahqirlashi holatidir.
2. Nima uchun siz taklif qilgan assotsiatsiyalar salbiy?
– Chunki bulling hodisasi – yaxshi tuyg‘ularni yo‘qotadi, odamning o‘z-o‘ziga ishonchini kamaytiradi, do‘stlik va hurmatni buzadi. Bu holatda ham jabrlanuvchi, ham tajovuzkor zarar ko‘radi.
3. Haqiqiy hayotda bu hodisaga duch kelganmisiz? Agar shunday bo‘lsa, u qanday namoyon bo‘lgan?
– Kimdir kimning kiyimi, tashqi ko‘rinishi yoki fikri ustidan kulganida, masxara qilganida yoki guruhdan chetlatganida (*bu ham bulling hisoblanadi*).
Agar siz yoki sizning do‘stingiz shunday holatga duch kelgan bo‘lsa, befarq bo‘lmang! Suhbat qiling, yordam so‘rang, psixolog yoki ishonch telefoniga murojaat qiling.

O‘qituvchi:

Hurmatli o‘quvchilar, biz birovning tashqi ko‘rinishi yoki jismoniy kamchiligi ustidan kulish yomonligini bilamiz. Ammo hayotda ko‘pincha o‘smirlar orasida aynan tashqi nuqsoni uchun birovning ustidan jamoaviy kulish, masxaralash va kamsitish holatlari uchraydi. Bu ham zo‘ravonlikning bir turi bo‘lib, ruhiy bosim orqali zo‘ravonlik deyiladi. Bugungi darsimizdan so‘ng imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan munosabatingiz yanada yaxshi tomonga o‘zgaradi va tashqi nuqsoni bor insonlarni masxaralash nima uchun yomonligini teranroq anglaysiz deb ishonaman.

Hozir sizlarga shunday insonlardan biri, irodali sportchi qiz, paraolimpiya chempioni Nurxon Qurbonovanning hikoyasini taqdim etamiz. Ekranga qaraymiz.

Vizual konent

“Imkoniyatlaringizni cheklab qo‘ymang” – Nurxon Qurbonova
<https://youtu.be/wTLjMVcZypY>

O‘qituvchi:

Zo‘ravonlik harakatlari, namoyon bo‘lish turlari va shakllaridan qat’i nazar, bitta yoki muntazam ravishda bir kishiga nisbatan takrorlanishi mumkin. “Bulling” (“Ta’qib”, “Bezorilik”) atamasi muntazam ravishda amalga oshiriladigan

zo‘ravonlikni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu bir yoki bir nechta odamning boshqa bir, o‘zini himoya qila olmaydigan shaxsga qarshi qayta-qayta zo‘ravonlik qilishidir. U faqat mushtumzo‘rlik bilan emas, balki haqorat qilish, uyaltirish, chetlatish, ustidan kulish yoki turli yo‘llar bilan kamsitish orqali ham namoyon bo‘ladi. Bullingning asosiy maqsadi – jabrlanuvchini o‘zini o‘zi qadrsizlashiga hamda boshqalar ko‘z o‘ngida tahqirlanishiga olib kelishdir. Bulling qilayotganlar shu orqali o‘zini kuchli ko‘rsatmoqchi bo‘ladi.

Bulling – bu kichkina sho‘xlik emas, balki *jiddiy muammo*. Har birimiz bu hodisaga qarshi turishimiz mumkin.

Agar siz atrofingizda kimnidir tahqirlanayotganini ko‘rsangiz:

himoya qiling,

tinglang,

hurmat qiling.

O‘qituvchi uchun qo‘shimcha ma’lumot:

Bullingning ikki turi mavjud: bevosita va yashirin. Yashirin bezorilik – sinfdagi (jamoadagi) bir o‘quvchiga e’tibor bermaslik, boykot e’lon qilish, munosabatlardan chetlashtirish, qasddan salbiy mish-mish tarqatish va hokazolarni o‘z ichiga oladi.

Bevosita bezorilik – to‘g‘ridan-to‘g‘ri jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik va kiberbullingni o‘z ichiga oladi.

Jismoniy zo‘ravonlik – ataylab kaltaklash va jarohatlar berishni o‘z ichiga oladi (odatda kuchliroq odam tomonidan kuchsizroq odamga nisbatan amalga oshiriladi).

Ruhiy zo‘ravonlik – turli xil og‘zaki tahqirlash, xulq-atvor xususiyatlariga, tashqi ko‘rinishga, jismoniy nuqsonlarga va boshqa omillarga asoslangan masxara qilishni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda bezorilikning yangi turi paydo bo‘ldi: **kiberbulling**. Bunda bezorilik onlayn tarzda sodir bo‘ladi – insonni haqoratomuz xabarlar bilan bombardimon qilinadi yoki provokasion, kamsituvchi mazmundagi videolar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtiriladi.

Bizning jamiyatimizda zo‘ravonlik va shafqatsizlikka keskin murosasizlik hukm surmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning ayni muammoga doir fikrini sizlarga aytib o‘tmoqchiman. Oliy Majlis Senatining parlament saylovidan keyingi birinchi majlisida Prezidentimiz bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurashish masalasini shaxsan nazoratga olishini e’lon qildi. **“Madaniyatimizga xos bo‘lmagan bunday illatlarga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shart”**, – dedi davlatimiz rahbari. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida "Insonning sha’ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa

shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas" deb belgilab qo'yilgan. Demak, hech kim boshqani haqorat qilishga, kamsitishga yoki zo'ravonlik qilishga haqli emas.

Muhtaram Prezidentimiz shunday deganlar:

"Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz." Sh.M.Mirziyoyev.

Demak, insonlarning qadrini yerga urmaslik, bir shaxsning boshqa bir shaxs ustidan zo'ravonlik qilishga yo'l qo'ymaslik hatto Davlatimiz rahbari tomonidan ham alohida ta'kidlanmoqda.

Aziz o'quvchilar, mamlakatimizda davlat insonlarni zo'ravonlikdan himoya qiladi. Avvalo, qonunlar orqali shaxsning xavfsizligi va huquqlari himoya qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida "Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas" deb belgilab qo'yilgan. Demak, hech kim boshqani haqorat qilishga, kamsitishga yoki zo'ravonlik qilishga haqli emas.

Bundan tashqari, bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan tizimlar ham ishlaydi. Shular orasida bugun eng samarali ishlayotgan tashkilotlardan biri **Ijtimoiy himoya milliy agentligidir.**

Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA) – 2023-yil 1-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-sonli farmoni bilan tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi – bu davlat tashkiloti bo'lib, aholining, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, bolalar, yoshlar, nogironligi bor shaxslar va kam ta'minlangan oilalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi. Agentlikning asosiy vazifalardan biri bolalar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikka duch kelgan bolalar uchun xizmatlar tashkil etishdan iborat.

Ushbu suratda Ijtimoiy himoya milliy agentligining vazifalari ko'rsatilgan.

Ijtimoiy himoya milliy agentligining Voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish bo'yicha asosiy ustuvor vazifalari

Bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish dasturlarini ishlab chiqish;

Vasiylik va homiylik tizimini takomillashtirish, shu jumladan oilaviy parvarish shakllarini rivojlantirish;

Farzand asrab olish tizimini yaxshilash;

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

Himoyaga muhtoj bolalarni davolash tizimini takomillashtirish.

Hozir esa sizlarga ushbu Agentlik va unung tizimi amalda qanday ishlashini ko'rsatuvchi videorolik taqdim etamiz.

Vizual kontent

Ijtimoiy himoya manzillari bo'ylab sayohat

https://youtu.be/Y3VyZKi5V_A


O'qituvchi:

Endi esa bulling holati nima ekanini chuqurroq tahlil qilamiz.

Bezorilik (bulling) holatida asosan 5 ta toifadagi ishtirokchi bo'ladi. Bular:

1. Tajovuzkor
2. Jabrlanuvchi
3. Himoyachilar
4. Qo'llab-quvvatlovchilar
5. Kuzatuvchilar

BEZORILIK ISHTIROKCHILARI



“Ta’rif bering”

Doskaga plakat joylashtiriladi. Plakatga tajovuzkor, jabrlanuvchi, himoyachilar, qo‘llab-quvvatlovchilar, kuzatuvchilar so‘zlari ketma-ketlikda yoziladi.

O‘qituvchi:

O‘quvchilar siz mana shu tushunchalarga ta’rif bering. Siz qanday tushunchaga ega bo‘ldingiz?

O‘quvchilar javoblari tinglanadi va tahlil qilinadi.

Albatta, mojarolar, nizolar, tortishuvlar, hatto janjallar – har doim o‘smirlar guruhlarida bo‘lgan va ehtimol bo‘ladi. Ammo bu holatlar odatda bir martalik bo‘lib, to‘g‘ri va tezda hal qilinsa, bezorilikdan farqli o‘laroq, jiddiy oqibatlariga olib kelmaydi. Shuning uchun nizo va zo‘ravonlik o‘rtasidagi aniq farqni bilish muhimdir.

Hozir shu haqida huquqshunos mutaxassisning fikrlariga quloq tutamiz.

Vizual kontent

Zo‘ravonlik mavzusiga oid muhim savol-javob – Kamola Aliyeva

https://youtu.be/0yiXkmQ_BII

O‘qituvchi:

Agar zo‘ravonlik uzoq vaqt davom etsa, muntazam xarakterga ega bo‘lsa, bu shaxsga nisbatan zulmga aylanadi. Natijada, u shaxs ushbu zulm doirasidan bir umrga chiqib keta olmasligi mumkin. Keyin esa bu uning farzandlari hayotiga

ko‘chib o‘tadi. Ya‘ni zo‘ravonlik ko‘rgan inson yoki o‘z farzandlariga zo‘ravonlik qilishi, yo bo‘lmasa, farzandlarini ham zo‘ravonlikka mum tishlab sabr qilishga o‘rgatishi mumkin. Har ikkala holat ham sog‘lom munosabat emas.

Sizlar katta hayotga qadam qo‘yish arafasida turgan shaxssizlar. Shuni yaxshi anglashingiz kerakki, zulmga sabr qilinmaydi. Sukut zo‘ravonlikni yanada avj olishi va boshqalarga ham tatbiq qilinishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun zo‘ravonlikka vaqtida qat‘iy “yo‘q” deyish kerak. Hozir shu haqida bir video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Farangizning qismati

<https://youtu.be/bwLi76FzgnQ>

Bullingsiz maktab

O‘quvchilar qatorlar bo‘ylab uchta guruhga bo‘linadi. Har bir guruhning vazifasi – “Bullingsiz maktab” qanday bo‘lishi kerakligi haqida qoidalar ishlab chiqish va ularni qiziqarli shaklda taqdim etish. Birinchi guruh qoidalarini plakat yoki infografika ko‘rinishida rasm va qisqa iboralar bilan ifodalaydi. Ikkinchi guruh qoidalarini reklama shiori orqali jonli va ta’sirchan tarzda yozadi. Uchinchi guruh esa qoidalarini “maktab qonunlari” uslubida, rasmiy tilda, moddalar tarzida ishlab chiqadi. Barcha guruhlar o‘z ishlarini sinf oldida taqdim etadilar, keyin umumiy muhokama orqali eng yaxshi qoidalar birlashtiriladi va “Bullingsiz maktab kodeksi” tayyorlanadi.

1. Har bir insonni ismi bilan chaqirish, laqab qo‘ymaslik.
2. Sinfda va maktabda bir-birining fikriga hurmat bilan qarash.
3. Agar kimdir qiynalsa, kulmasdan yordam qo‘lini cho‘zish.
4. Biror o‘quvchiga qarshi guruh tuzmaslik, uni chetlatmaslik.
5. Internetda ham, sinfda ham haqoratli so‘z ishlatmaslik.
6. So‘z bilan, harakat bilan birovni uyaltirmaslik va qo‘rqitmaslik.
7. Har kim o‘z fikrini erkin ayta olishini qo‘llab-quvvatlash.
8. Murosa va tushunishni birinchi o‘ringa qo‘yish.
9. Oqilona muloqot qilish: muammolarni zo‘ravonlik bilan emas, gaplashib hal qilish.
10. Hech kimni tashqi ko‘rinishi, kiyimi yoki oilaviy sharoiti uchun kamsitmaslik.
11. Har bir o‘quvchi o‘zini xavfsiz his qilishi uchun mas’uliyatni barcha teng olishi.
12. Agar bulling holati ko‘rilsa, jim turmaslik – o‘qituvchi yoki do‘stga murojaat qilish.

Yakuniy qism (10 daqiqa)

O'qituvchi:

Hurmatli o'quvchilar!

Bugun biz juda muhim – jamiyatimizning ma'naviy sog'lomligi, o'zaro munosabatlar madaniyati haqida so'z yuritdik. Sizlar bilan birgalikda zo'ravonlik va bulling nima ekanini, uning ko'rinishlari, oqibatlar va unga qarshi qanday kurashish mumkinligini muhokama qildik. Bulling nafaqat jismoniy zo'ravonlik, balki so'z bilan tahqirlash, tahdid qilish, kamsitish, Internet orqali yo'llanadigan salbiy munosabatlar orqali ham yuz berishini bilib oldik. Bu holatlarga hech qachon befarq bo'lmaslik kerak!

Barchamiz birgalikda bullingga qarshi turishimiz kerak. Bu faqat o'qituvchi yoki maktab ma'muriyatining ishi emas – har biringizning mas'uliyatingiz bor. Agar siz biror kimning haqorat qilinayotganini, kamsitilayotganini ko'rsangiz, sukut saqlash o'rniga uni qo'llab-quvvatlang, katta yoshdagilarga murojaat qiling. Chunki haqiqatdan ham kuch – birdamlikda!

Biz bag'rikenglikni, o'zaro hurmat va tinch-totuvlikni tanlaymiz. Madaniyatli jamiyat – bu faqat go'zal so'z emas, balki kundalik harakatlarimiz, so'zlarimiz, munosabatlarimizda ko'rinadigan hayot tarzidir.

“Insonni inson qilgan – mehr va hurmatdir”. Keling, shu mehr va hurmatni targ'ib qilaylik.

E'tiboringiz uchun rahmat.